O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI

MAKROIQTISODIY VA HUDUDIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti direktorining birinchi o‘rinbosari

_____Z.Xaldarov

“___”_____2026 yil

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi OAK raisi v.v.b.

_____ A. Shermuxamedov

“___”_____2026 yil

08.00.02 – “Makroiqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon

D A S T U R I

TOShKENT – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Rayosatining 2026 yil “____”_____ -sonli qarori bilan tasdiqlangan

08.00.02- “Makroiqtisodiyot” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy darajalarga talabgorlar uchun malakaviy imtihon dasturi 2026 yil 9 fevral Ilmiy kengash yig‘ilishida (3-bayonnoma) muhokama qilindi.

Tuzuvchilar: falsafa doktori (PhD), k.i.x. Xaldarov Z.A.
falsafa doktori (PhD), k.i.x. Abdunazarova N.U.
falsafa doktori (PhD), Djalilov D.A.

Toshkent – 2026

Kirish

Davlat iqtisodiy siyosatining nazariy asoslari sifatida tan olinadigan fanlar qatorida "Makroiqtisodiyot" fani alohida o'rin tutadi.

Yalpi ishlab chiqarish (real sektor), tashqi iqtisodiy aloqalar (tashqi sektor), fiskal (budjet-soliq sektori) va monetar (pul-kredit sektori) siyosatda uzviylik va muvozanatni ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish "Makroiqtisodiyot" fanining predmetini tashkil etadi.

Dastur 08.00.02 – "Makroiqtisodiyot" ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ushbu dastur 08.00.02 – "Makroiqtisodiyot" ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasiga talabgor katta ilmiy xodim-izlanuvchilar va mustaqil izlanuvchilar instituti uchun mo'ljallangan.

"Makroiqtisodiyot" faniga kirish.

Dastlabki makroiqtisodiy tahlil elementlari: "Kene jadvali", V. Leontevning tarmoqlararo balansi. Iqtisodiyotga davlat aralashuvining zarurligi. Keyns nazariyasining mohiyati. Asosiy makroiqtisodiy muammolar. Uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va tashqi dunyo makroiqtisodiyot sub'ektlari sifatida. Yopiq va ochiq iqtisodiyot. Makroiqtisodiyot usullari. Makroiqtisodiy modellar. Yangi Keynsians modellari va ularning mohiyati. Endogen va egzogen o'zgaruvchilar. Makroiqtisodiyotning iqtisodiyot sohasidagi boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Makroiqtisodiyot va mikroiqtisodiyot. Doiraviy aylanish modeli. "Daromadlar-xarajatlar" va "resurslar-mahsulotlar" oqimi. Qarama-qarshi oqimlar o'rtasidagi tenglikning buzilishi sabablari. Makroiqtisodiyot sub'ektlarining o'zaro aloqalari, maqsad va funksiyalari. "Oqimdan chetga chiqish" va "chetdan oqimga qo'shilish"lar. Makroiqtisodiy siyosat ko'rinishlari.

Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va milliy hisoblar tizimi.

Yalpi ichki mahsulot (YaIM) ko'rsatkichining mohiyati. Iqtisodiy hudud. Rezident. Oraliq hamda yakuniy tovarlar va xizmatlar. Bozor baholari. YaIMni hisoblashning ishlab chiqarish usuli. Qo'shilgan qiymat, bir qiymatni ikki bor hisobga olishni istisno etish. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash. Shaxsiy iste'mol xarajatlari. Yalpi investitsiyalar. Tovarlar va xizmatlarning davlat xaridi. Sof eksport. O'zbekiston Respublikasida YaIMning ishlab chiqarish hamda yakuniy iste'molga ko'ra tarkibi. YaIMni daromadlar bo'yicha hisoblash. Boshlang'ich daromadlarning taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi.

Yalpi milliy daromad. Yalpi tasarrufdagi milliy daromad. Shaxsiy daromad, iste'mol va jamg'arish. Asosiy makroiqtisodiy ayniyatlar. Daromadlar va xarajatlar tengligi. Investitsiyalar va jamg'armalar tengligi. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari. Nominal va real YaIM. YaIM deflyatori (Paashe indeksi). Iste'mol narxlari indeksi (INI). Fisher indeksi. YaIMni hisoblashdagi qiyinchiliklar. Xufyona iqtisodiyot.

Milliy hisoblar tushunchasi. Sof ichki mahsulot. YaIM va "sof iqtisodiy faravonlik".Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish va prognozlash nazariyasi, ilmiy maktablari va amaliyoti. Makroiqtisodiy tendensiyalarni va milliy iqtisodiyot tarkibini milliy hisoblash tizimi, tarmoqlararo balans va iqtisodiy-matematik modellar tizimi sifatida eng ilg'or vositalardan foydalangan holda baholash metodikasi va amaliyoti.

Makroiqtisodiy beqarorlik. Bozor iqtisodiyotining davriy rivojlanishi. Ishsizlik.

Iqtisodiy davrlarning mohiyati. Iqtisodiy tebranishlarning sabablari: Ilmiy texnika taraqqiyoti. Siyosiy hodisalar. Jahon bozorida energoresurslar narxlarining o'zgarishi. Tabiat hodisalari. Talab va taklif o'rtasidagi nisbat. Yalpi xarajatlardagi o'zgarishlar. Iqtisodiy davrlarning bosqichlari va ularning tavsifi. Iqtisodiy tebranishlarning turli tarmoqlarga ta'siri. Iqtisodiy tebranishlarning hozirgi kundagi xususiyatlari. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozlar. Davriy tebranishlarning tarqalish mexanizmi: multiplikator-akselerator effekti. Kapital sig'imi koeffitsienti. Akselerator effekti. Multiplikator-akselerator mohiyati.

Ishsizlik tushunchasi. Ish bilan bandlar va ishsizlar. Ishsizlikning neoklassik va keynscha konsepsiyalari. A. Piguning neoklassik konsepsiyasi. Real ish haqi, ish kuchi taklifi va unga talab. Ishsizlikning keynscha konsepsiyasi. Majburiy ishsizlik. Bandlilik multiplikatori. Ishsizlik turlari va ish bilan to'la bandlik. Ishsizlikning haqiqiy va tabiiy darajasi. Potensial va xaqiqiy YaIM. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari. Ouken qonuni. Ishsizlikning ijtimoiy oqibatlari. Davriy ishsizlik. Makroiqtisodiy beqarorlik va ishsizlik.

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligini ta'minlash va yangi ish o'rinlarini tashkil qilish borasida joriy va istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan vazifalar. Iqtisodiy darvlarni tartibga solishda davlatning roli. Mamlakatning iqtisodiy turg'unlik siyosati. Iqtisodiy tebranishlarga bozorlardagi monopol tuzilmalar, davlatning tartibga soluvchilik roli, ilmiy texnika taraqqiyoti va ishlab chiqarishnig baynalminallashuvi ta'siri. Strategik rejalashtirishning metodologiyasi va metodikasi, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish ssenariylari.

Inflyatsiya va aksilinflyatsiya siyosati.

Inflyatsiya: mohiyati, hisoblanishi va turlari. Inflyatsiyaning sabablari, pulning miqdoriy nazariyasi. Pul massasining ko'payishi. Pulning aylanish tezligi ortishi. Inflyatsiyaning taklif omillari. Iqtisodiyotdagi monopolizm darajasi. Davlat xarajatlari. Inflyatsion soliq. Inflyatsiyaning sur'atlariga ko'ra turlari. Talab inflyatsiyasi: mohiyati va modeli. Inflyatsion kutilmalar. Inflyatsiyaning kritik nuqtasi. Xarajatlar inflyatsiyasi: mohiyati va modeli. Firmalar monopolizmi va kasaba uyushmalari monopolizmi. Xomashyo va energiya baholarining o'sishi. Talab va taklif inflyatsiyasining qo'shilishi modeli. Inflyatsion spiral. Ochiq va bosib turilgan inflyatsiya. Bozor mexanizmi deformatsiyasi. Baho signallarining buzilishi.

Kutilgan va kutilmagan inflyatsiya. Inflyatsiya va foiz stavkalari. Budjet taqchilligi va inflyatsiya. Fisher samarasi. Inflyatsiyaning ijtimoiy oqibatlari. Inflyatsiya va ishsizlik. Fillips egri chizig'i. Inflyatsiyaning tezlashishiga olib kelmaydigan ishsizlik darajasi. Aksilinflyatsiya siyosatining mohiyati, vositalari. Baholar va daromadlar siyosati. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotidagi inflyatsiya jarayonlari va aksilinflyatsiya siyosati xususiyatlari. Bozorni boshqarish mexanizmlariga o'tish sharoitida inflyatsiya jarayonlarini tartibga solish amaliyoti.

Yalpi talab – yalpi taklif modeli

Yalpi talab tushunchasi. AD egri chizig'i. Baho omillari. Foiz stavkasi samarasi. Boylik samarasi va import xaridlari samarasi. AD egri chizig'i traektoriyasi. Pulning miqdoriy nazariyasi. Baholar darajasi va yalpi talab o'rtasidagi teskari bog'liqlik. Bahodan boshqa omillarning yalpi talabga ta'siri. Iste'mol xarajatlaridagi, investitsiya xarajatlaridagi, davlat xarajatlaridagi va sof eksportdagi o'zgarishlar. Yalpi taklif tushunchasi va egri chizig'i. Resurslar bahosning o'zgarishi. Unumdorlikning o'zgarishi. Soliqlarning o'zgarishi. Yalpi taklifdagi o'zgarishlar. Yalpi taklifning klassik modeli.

Nominal kattaliklarning o'zgaruvchanligi. Real kattaliklarning qat'iyligi. Baholar o'zgarishining mehnat bozoriga ta'siri. AS egri chizig'ining vertikalligi. AS egri chizig'ining ishlab chiqarish omillari va texnologiyalar ta'sirida siljishi. Yalpi taklifning keynscha modeli. Nominal kattaliklarning nisbatan qat'iyligi. Real kattaliklarning nisbatan o'zgaruvchanligi. Yalpi talab ta'sirida yalpi taklif egri chizig'idagi siljishlar. Baholarning muvozanatli darajasi. Ishlab chiqarishning muvozanatli hajmi. Umumiy muvozanat tushunchasi. Valrasning umumiy muvozanat tenglamasi. AD-AS modelida muvozanatning ta'minlanishi mexanizmi. Talab shoklari. Taklif shoklari. Yalpi taklif o'zgarishining oqibatlari. Barqarorlashtirish siyosati. Pul taklifi va davlat xarajatlarining o'zgartirilishi.

Iste'mol, jamg'arish va investitsiya funksiyalari.

Yalpi talab komponentlari orasida iste'molning o'rni. Iste'mol funksiyasining algebrik va grafik ko'rinishi. "Asosiy psixologik qonun". Avtonom iste'mol. Daromad (shaxsiy tasarrufdagi daromad) va iste'mol o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik. Jamg'arish funksiyasi va grafigi. Foiz stavkasi va jamg'arish. Xususiy, davlat va tashqi dunyo jamg'armalari. Iste'molga (ARS) va jamg'arishga o'rtacha moyillik (APS). Iste'molga (MRS) hamda jamg'arishga (MPS) chegaraviy moyillik. "Kuznes topishmog'i». "Permanent daromad" konsepsiyasi. "Hayot davri" konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasida ise'mol va jamg'arish jarayonlari xususiyatlari.

Investitsiya tovarlariga talabning yalpi talabdagi o'rni. Avtonom investitsiyalar. Foiz stavkasi. Kutilayotgan sof foyda normasi. Tobin koeffitsenti. Investitsiyalarga talab funksiyasi. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi boshqa omillar. Akselerator modeli. To'liq investitsiya funksiyasi. Investitsiyalashga chegaraviy moyillik. Investitsiyalarning beqarorligini belgilovchi omillar. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. Milliy iqtisodiyotni tartibga solishning investitsiyaviy jixatlari va amaliy asoslarni rivojlantirish

Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanat modeli.

Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi. Bozor mexanizmi tomonidan yalpi talab va yalpi taklif muvozanati ta'minlanishining doimiy emasligi. Investitsiyalash va jamg'arish rejalarining turlicha ekanligi.

"Daromadlar - xarajatlar" modeli – Keyns xochi. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar. Modelni tuzishdagi asosiy shartlar. Sof eksport funksiyasi. Importga chegaraviy moyillik. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmi. Tovar moddiy zahiralarining rejalashtirilmagan o'zgarishlari. Haqiqiy investitsiyalar va rejalashtirilgan investitsiyalar tengligi. Zahiralarning o'zgarishi. Avtonom xarajatlar dinamikasi va uning ta'sirida muvozanatli YaIM hajmining o'zgarishi. Multiplikator samarasi. Avtonom xarajatlarning multiplikatsiyasi mexanizmi. Iste'molga chegaraviy moyillik va multiplikatsiya samarasi. Multiplikator formulasi. Retsessiya va inflyatsiyaga xos uzilish. Jamg'armalar oshirilishining iste'mol va yalpi talab hajmlariga ta'siri.

Pulga talab funksiyasi

Pul tushunchasi va funksiyalari. Pulning likvidliligi. Pul agregatlari: M1, M2, M3, L, "kvazi pullar". Pulga bo'lgan talabga monetarcha yondoshuv. Pulning miqdoriy nazariyasi. Almashinuv tenglamasi. Fisher va Kembrij tenglamalari. Pulning aylanish tezligi. Iqtisodiyotning monetizatsiya darajasi. Baholar darajasi, real YaIM hajmi va pulga talab. Pulga bo'lgan real talab. "Pul mablag'larining real zahirasi". Pulga talabning keynscha nazariyasi - likvidlilikni afzal ko'rish nazariyasi. Bitimlar uchun, ehtiyotkorlik sharti bilan

va mulk sifatida pulga (spekulyativ) talab. Pulni saqlashning muqobil qiymati. Bauman-Tolbin modeli. Davr mobaynidagi xaridlar summasi. Pul daromadlarini olish davriyligi. Pulga spekulyativ talab va qimmatli qog'ozlar daromadliligi darajasi o'rtasidagi teskari bog'liqlik. Pulga bo'lgan talab funksiyasi. Pulga bo'lgan talab egri chizig'i grafigi. Fisher samarasi. Nominal foiz stavkasi va pulga bo'lgan talab. Pulga talabga portfelli yondoshuv. Aktivlar portfelining tarkibi, unda naqd pulning ulushi. Jamg'arilgan boylik hajmi va pulga talab.

Pul taklifi. Pul bozorida muvozanat

Pul taklifi. Naqd pullar va depozitlar. Tijorat banklari tomonidan "pul massasining yaratilishi". Kredit multiplikatsiyasi. Depozitlarni majburiy zahiralash normasi. Majburiy va ortiqcha zahiralar. Bank multiplikatori. Pul taklifining qisqartirilgan modeli. Pul bazasi. Pul multiplikatori. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. Markaziy Bank tomonidan pul taklifini nazorat qilish va tartibga solish vositalari. Nazorat qilish imkoniyatlarini cheklovchi omillar. Pul taklifi. Baholar darajasi qayd qilingan va daromadlarning belgilangan darajasi sharoitda pul bozorida qisqa muddati muvozanat. Foiz stavkasi va pul massasining muvozanatli darajalari o'zgarishiga daromadlar darajasi va pul taklifi o'zgarishining ta'siri. Pulning likvidliligi egri chizig'i (LM)- Xansen modeli. Keynscha pul siyosatining mohiyati. Likvidlilik tuzog'i. Likvidlilik tuzog'i sharoitida pul siyosatining samarasizligi. Pul bozorida uzoq muddatli muvozanat. Pul massasining ko'payishi va yalpi taklifning oshishi, real kassa qoldiqlari samarasi, M. Fridmenning monetar qoidasi. Pul taklifi, milliy daromad va kutilayotgan inflyatsiyaning uzoq muddatli o'sish sur'atlari.

Davlat budjeti. Soliqlar.

Davlat budjetining mohiyati, tarkibi va funksiyalari. Daromadlarni qayta taqsimlash. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish va rag'batlantirish. Fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish. Ijtimoiy siyosatni moliyaviy ta'minlash. Pul mablag'larining markazlashgan fondlarini tashkil etish va foydalanilishi ustidan nazorat. Davlat budjeti daromadi. Davlat nobudjet fondlari. Konsolidatsiyalashgan budjet. Mahalliy budjetlar. Soliqlar. Nobudjet to'lovlari. Soliqlarning turlari, funksiyalari. Davlat budjeti daromadlarining soliqlar turlari bo'yicha tarkibi. Soliq siyosati. Soliqqa tortish mezonlari. Adolatlilik. Samaradorlilik. To'lovga qodirlilik. Mavsumiy va davriy omillarga to'g'rilangan davlat budjeti daromadlari. Soliq yuki. Laffer egri chizig'i. Chegaraviy soliq stavkasi. Davlat budjeti xarajatlari. Davlatning iqtisodiyotda ishtiroki darajasi. Fiskal multiplikator va uning turlari. Vagner qonuni. Ne'matlarni iste'mol qilish jarayonidagi tashqi samaralar. Ijobiy va salbiy samaralar. Budjet taqchilligi. O'zbekiston Respublikasi davlat budjetining daromadlari va xarajatlari tarkibi.

Budjet-soliq siyosati

Budjet-soliq (fiskal) siyosati: mohiyati, maqsadlari, vositalari. Rag'batlantiruvchi va cheklovchi fiskal siyosat. Yopiq va ochiq iqtisodiyotda davlat xarajatlari multiplikatori. Soliq multiplikatori. Soliq multiplikatsiyasi mexanizmi. Balanslashgan budjet multiplikatori. Soliqlarni kamaytirilishi samarasi va davlat xarajatlarini oshirilishi samarasi. Diskret fiskal siyosat. Davlat budjeti taqchilligi va profitsiti. Nodiskret fiskal siyosat. Avtomatik barqarorlashtirgichlar. Progressiv soliq tizimi. Davlat transfertlari tizimi. Davriy taqchillik va davriy profitsit. Davlat budjetining tarkibiy taqchilligi. Tarkibiy profitsit. Taqchillikni moliyalash uslullari. Taqchillikni monetlashtirish va

Oliver-Tanzi samarasi. Davlat obligatsiyalarini chiqarish va siqib chiqish samarasi. Davlat qarzi. Ichki va tashqi qarz. Davlat qarzining barqarorligi. Fiskal barqarorlik. Davlat qarzi o'sishining iqtisodiy oqibatlari: kapital zahiralarining kamayishi, daromadlar miqdoridagi tengsizlik, iqtisodiy rag'batlarning zaiflashuvi, foiz stavkasining ko'tarilishi va mamlakat ishlab chiqarish potensialining pasayishi. O'zbekiston Respublikasi budjet-soliq siyosatining o'ziga xos xususiyatlari.

Bank tizimi. Pul-kredit siyosati

Bank tizimining tarkibi. Markaziy bank va tijorat banklarining funksiyalari. Banklarning asosiy operatsiyalari va bozor iqtisodiyotidagi roli. Pul-kredit siyosatining mohiyati, pirovard maqsadlari va oraliq mo'ljallar. Majburiy zahira me'yori (normasi). Hisob stavkasi (qayta moliyalash stavkasi). Teylor qoidasi. Tabiiy foiz stavkasi. Ochiq bozordagi operatsiyalar. Qayta sotib olish to'g'risida kelishuv (REPO). Qat'iy va yumshoq pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining ta'sirini ishlab chiqarish hajmiga yetkazish mexanizmi. Yetkazish mexanizmidagi buzilishlar, sabablari va oqibatlari. Pul-kredit siyosati rejimlari. Inflyatsion targetlash rejimi. Monetar targetlash rejimi. Markaziy bankining mustaqilligi. YaIMning o'sishi va pul-kredit siyosati. Pul-kredit va budjet-soliq siyosatini muvofiqlashtirish muammolari, siqib chiqarish samarasi. O'zbekiston Respublikasida bank tizimi barqarorligini oshirish va pul-kredit siyosatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari.

IS-LM modeli

Xiks-Xansen modelining mohiyati. Ivestitsiya tovarlariga talabning o'ziga xos xususiyatlari, samarali talab. Modelning asosiy o'zgaruvchilari va tenglamalari. Tovarlar bozoridagi muvozanat. IS egri chizig'i. IS egri chizig'ining yotiqligi. IS egri chizig'ining tenglamasi. IS egri chizig'i siljishlarini belgilovchi omillar.

Pul bozoridagi muvozanat. LM egri chizig'i. Egri chiziqning yotiqligi. LM egri chizig'ining tenglamasi. LM egri chizig'ining gorizontal, ko'tarilib boruvchi va vertikal kesimlarida multiplkator samarasi. Daromadlar, pulga talab va foiz stavkasi. LM egri chizig'ining algebrik natijasi. LM egri chizig'i siljishlari. IS-LM modelidagi muvozanat. Tovar va pul bozoridagi muvozanat. Baholar darajasi pasayishi natijasida ikki bozor tizimida muvozanatning o'zgarishi. IS-LM modelida budjet-soliq siyosati. Davlat xarajatlari va soliq stavkalarining o'zgartirilishi. Siqib chiqarish samarasi. Siqib chiqarish samarasi va budjet-soliq siyosati samaradorligi. IS-LM modelida pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosati samaradorligi. Likvidlilik tuzog'i. Investitsiya tuzog'i. Baholar o'zgarishi sharoitida rag'batlantiruvchi fiskal va pul-kredit siyosati. Modelda qisqa muddatli va uzoq muddatli muvozanat.

Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi va neokeynscha modellari.

Iqtisodiy o'sish tushunchasi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i. Ishlab chiqarishning potensial hajmi dinamikasi. Ishlab chiqarish tafovuti. Iqtisodiy o'sishning o'lchanishi. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish. Ekstensiv o'sishning resurs, texnologik va ekologik cheklovlari. Iqtisodiy o'sishning talab, taqsimot va taklif omillari. Mehnat unumdorligini oshiruvchi omillar. Iqtisodiy o'sish modellarining mohiyati va ahamiyati. Iqtisodiy o'sishnig neokeynscha modellarining o'ziga xos xususiyatlari. Ye.Domar modeli. Investitsiyalar – talab omili. Akselerator prinsipi. Investitsiyalar – taklif omili. Talab tenglamasi. Taklif tenglamasi. Kapital unumdorligi. Multiplikator. Talab va taklif

muvozanati tenglamasi. R.Xarrod modeli. Ishlab chiqarish va investitsiya hajmlari o'rtasidagi bog'liqlik modeli. Haqiqiy, kafolatlangan va tabiiy o'sish sur'atlari. To'liq bandlik sharoitida barqaror o'sish formulasi. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sish sur'atlari va omillari. Iqtisodiy o'sishning yangi manbalari va omillarini aniqlash va joriy etish uslubi va amaliyoti.

Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari.

Neoklassiklar tomonidan iqtisodiy o'sishning keynscha nazariyasi tanqidi. Robert Solou modeli, modelda yalpi taklif funksiyasi. Kobb-Duglasning ishlab chiqarish funksiyasi. Mehnat va kapital hajmlari hamda unumdorligi. Modelda yalpi talabning o'sishi. Kapital jamg'arish. Kapitalning chiqib ketishi. Mehnatning kapital bilan qurollanganligi darajasi. Jamg'arish normasi. Aholi sonining o'sishi. R.Solou modelida texnik taraqqiyot va kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasi. Jamg'arish normasi va E.Felpsning "oltin qoida"si. Jamg'arish normasini o'zgartirish siyosati. Texnik taraqqiyotni rag'batlantirish. A.Lyuisning iqtisodiy o'sish modeli. Agrar va sanoat sektori. Mehnat resurslarini qishloq xo'jaligidan sanoatga qayta taqsimlash. Modelning qo'llanishi imkoniyatlari. Xiksning texnik taraqqiyot modeli. Neytral, mehnat tejovchi va kapital tejovchi texnik taraqqiyot.

Xalqaro savdo nazariyasi

Xalqaro savdoning zarurligi va ko'rinishlari. Jahon iqtisodiyotida xalqaro savdo ko'lamlarining ortib borishi. A.Smitning mutlaq ustunlik nazariyasi. Mutlaq xarajatlardagi farq. Tashqi savdodan yutuq. D.Rikardoning nisbiy ustunlik nazariyasi. Turli tovarlarni ishlab chiqarish xarajatlari o'rtasidagi nisbat. Ishlab chiqarish xarajatlari va o'rin almashtirish xarajatlari doimiyligi shartlari. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziqlari. To'liq ixtisoslashish. O'rin almashtirish xarajatlarining ortib borishi. Qisman ixtisoslashishdan maksimal manfaat ko'rish. Xeksher-Olin nazariyasi. Ishlab chiqarishning ortiqcha va taqchil omillari. Mamlakatda va tashqi davlatlarda omillar o'rtasidagi nisbat darajasi. "Leontev paradoksi (taajjubi)". M Porter nazariyasi. "Texnologik uzilish" nazariyasi. Jahon bozorida talab va taklif. Muvozanatli baho. Manfaatlarning taqsimlanishi.

Tashqi savdo siyosati

Makroiqtisodiy jihatlar nazariyasi va amaliyoti milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va jahon iqtisodiy tizimida integratsiya modellari samaradorligini oshirish, tovarlar va xizmatlar eksportini kengaytirish. Tashqi savdo siyosati: mohiyati va maqsadlari, usullari. Tarif va iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarga ta'siri. Davlat ko'rgan yutuq. Milliy farovonlikning sof yo'qotilishi. Ta'riflarni yoqlovchi hamda ularga qarshi fikrlar. Yangi paydo bo'lgan tarmoqlarni himoya qilish. Ichki bandlilik va davlat daromadlarining o'sishi. Dempingdan himoya. Resurslarni raqobatbardosh bo'lmagan sohalarga yo'naltirish. Tarifga nisbatan afzalliklari, kamchiliklari va qo'llash muammolari. Eksportga bojxona bojlari: qo'llashdan kutilgan maqsadlar, aholi turmush darajasi, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariga ta'siri. Eksportni «ixtiyoriy" cheklash: mohiyati va qo'llanishining iqtisodiy natijalari. Eksport subsidiyalari va kompensatsiyalovchi import bojlari. Import kvotalari. Kvotalashning iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar va davlat manfaatlariga ta'siri. Import litsenziyalarini taqsimlash uslublari. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo siyosatining o'ziga xos xususiyatlari. Belgilovchi shart-sharoitlar va ustuvorliklar. Tashqi savdo dinamikasi, tovarlarga ko'ra tarkibi va diversifikatsiyalash.

To‘lov balansi

To‘lov balansi tushunchasi, makroiqtisodiy roli, tuzish tamoyillari. Iqtisodiy hudud. Rezident. Ikki bor yozuv. Kredit. Debet. Operatsiyalar bahosi. Tashqi savdo balansi. Joriy operatsiyalar balansi. Tovarlar eksporti va importi. Omildan olingan daromadlar. eksportga va importga o‘xshash operatsiyalar. Sof joriy transfertlar. Joriy operatsiyalar balansi qoldig‘i va uni makroiqtisodiy tartibga solish. Kapital xarakati va moliyaviy operatsiyalar balansi. Aktivlarni sotish va sotib olish. To‘lov balansi tarkibiy qismlari o‘rtasidagi aloqadorlik. Ichki va tashqi balans. To‘lov balansi tahlili. To‘lov balansi taqchilligi. To‘lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish. Markaziy Bankning rasmiy valyuta zahiralari bilan operatsiyalari. To‘lov balansi inqirozi va undan chiqish. Almashinuv kursining o‘zgartirilishi.

Valyuta kursi

Valyuta bozori. Valyuta ayirboshlash zarurati. Chet el valyutasiga talab. Chet el valyutasini taklif etish. Chet el valyutasiga talab va uni taklif etishning kichik mamlakat modeli. Valyuta bozorida muvozanatning kichik mamlakat modeli. Valyuta kursi. To‘g‘ri, bilvosita va teskari kotirovka. Qat’iy, egiluvchan va erkin valyuta kurslari. Valyuta kursi rejimlari. Valyutaning qadrsizlanishi va qimmatlashishi. Devalvatsiya va revalvatsiya. Nominal valyuta kursi. Real va real samarali almashuv kurslari. Xarid qobiliyati pariteti. Nominal va real valyuta kurslarining uzoq muddatli dinamikasi. Valyuta kursiga ta’sir etuvchi omillar: foiz stavkalarining o‘zgartirilishi, ishlab chiqarishning real hajmlari, inflyatsiya, hukumat siyosati, savdo balansi, joriy operatsiyalar balansi. Foiz stavkalarining qoplanmagan va qoplangan pariteti. Muvozanatli valyuta kursi. Makroiqtisodiy siyosatning muvozanatli valyuta kursiga ta’siri.

Ochiq iqtisodiyotda makroiqtisodiy siyosat.

Makroiqtisodiy boshqarish xususiyatlari va muntazamlik bahosi amaliyoti metodi va metodologiyasi. Ochiq iqtisodiyotda muvozanatli ishlab chiqarish hajmi. Ochiq iqtisodiyotda yalpi ishlab chiqarish hajmi. Ichki xarajatlar va savdo balansi. Sof eksport. Ichki xarajatlar va milliy ishlab chiqarish hajmi. Eksport va importning milliy iqtisodiyotga ta’siri. Eksport va import o‘rtasidagi bog‘liqlik. Sof eksport va muvozanatli ishlab chiqarish hajmi. Ochiq iqtisodiyot uchun Keyns xochi. Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli. Ochiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati. Yopiq iqtisodiyotda pul-kredit siyosati. Qayd qilingan valyuta kursi va kapitalning yuqori mobilligi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat. Fiskal siyosatning samaraliligi. Devalvatsiyaning ishlab chiqarish hajmiga ta’siri. Kapitalning past mobilligi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosat. Erkin suzib yuruvchi valyuta kursi rejimida iqtisodiy siyosat.

Makroiqtisodiy xatar va tahdidlarni aniqlash va prognoz qilish, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash, ichki va tashqi omillarning makroiqtisodiy barqarorlik va barqarorlikka ta’sirini tahlil qilish nazariyasi va amaliyoti. Milliy iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari va sohalarini (sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish, aholining turmush darajasi va sifati) maqroiqtisodiy tartibga solish usullari va mexanizmlari, ularni mamlakat iqtisodiy o‘sishi bilan o‘zaro bog‘liqligi.

Iqtisodiyot real sektorining o‘sishi tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni tarkibini takomillashtirish va diversifikatsiyalash, resurslarni tejaydigan innovatsion omillarni faollashtirish.

Makroiqtisodiy tartibga solish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirish metodologiyasi va amaliyotini takomillashtirish. Makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirishda bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiy erkinlashtirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. Toshkent.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-sonli qarori.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni. Xalq so'zi gazetasi. // 08.02.2017 y. №28 (6722).

4.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent.: «O'zbekiston» 2020 y.

5.O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent.: «Adolat», 2018 y.

6.O'zbekiston Respublikasi. Qonunlar va Farmonlar.–Toshkent. 1994. B.236.

7.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699-son Qarori.Ukaz Prezidenta RUz №UP-4947 ot 07.02.2017g. «O strategii deystviy po dalneyshemu razvitiyu Respubliki Uzbekistan».

8.Ukaz Prezidenta Sh.Mirziyoeva «O merax po glubokomu reformirovaniyu sistemы dorojnogo xozyaystva Respubliki Uzbekistan» 9.12.2019 g., № UP-5890

9.Ukaz Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 21.09 2018 g. №UP-5544 «Ob innovatsionnoy strategii razvitiya Respubliki Uzbekistan na 2019 - 2021 godы»

10.Mirziyoev Sh.M. Vыstuplenie na sovmestnom zasedanii Zakonodatelnoy palatы i Senata Oliy Majlisa Respubliki Uzbekistan. - Narodnoe slovo, 9.09.2016 g. Elektronnыy resurs: http://www.press-service.uz/ru/news/5325/ (Obraщenie ot 15.09.2016)

11.Mirziyoev Sh.M. Posledovatelnoe prodoljenie demokraticheskix reform, obespechenie v strane mira i spokoystviya, sozdanie dostoynыx usloviy jizni dlya nashego naroda – garantiya ustoychivogo razvitiya. Doklad na VIII s'ezde Liberalno-demokraticheskoy partii Uzbekistana. – Narodnoe slovo, 02.11.2016 g.

12.Mirziyoev Sh.M. Mы vmeste postroim svobodnoe demokraticheskoe i prosvetayuщee gosudarstvo. Vыstuplenie na torjestvennoy seremonii vstupleniya v doljnost Prezidenta Respubliki Uzbekistan na sovmestnom zasedanii palat Oliy Majlisa. – 16.12.2016 g.

13.Mirziyoev Sh.M. Obespechenie verxovenstva Zakona i interesov cheloveka-garantiya razvitiya stranы i blagopoluchiya naroda. Doklad izbrannogo prezidenta RUz Sh.Mirziyoeva na torjestvennom sobranii, posvyaщennoe 24-y godovщine prinyatiya Konstitutsii RUz 7 dekabrya 2016 g.

14.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga quramiz. Vыstuplenie Prezidenta Respubliki Uzbekistan Sh.Mirziyoeva na vstreche posvyaщennoy 25-letiyu obrazovaniya Respublikanskogo internatsionalnogo kulturnogo sentra. 2017 g.

15.Mirziyoev Sh.M. Svobodnoe, demokraticheskoe i prosvetayuщee gosudarstvo Uzbekistan mы postroim vmeste s nashim mujestvennыm i blagorodnыm narodom. Vыstuplenie na torjestvennoy seremonii vstupleniya v doljnost Prezidenta Respubliki Uzbekistan na sovmestnom zasedanii palat Oliy Majlisa. – Narodnoe slovo, 16.12.2016 g.

16.Mirziyoev Sh.M. Kriticheskiy analiz, jestkaya dissiplina i personalnaya otvetstvennost doljnы stat povsednevnoy normoy v deyatelnosti kajdogo rukovoditelya. Doklad na rasshirennom zasedanii Kabineta Ministrov, posvyaщennom itogam sotsialno-ekonomicheskogo razvitiya stranы v 2016 g. i vajneyshim prioritetnым napravleniyam ekonomicheskoy programmы na 2017 g. – Pravda Vostoka, 16.01.2017 g.

17. O vnesenii izmeneniy i dopolneniy v nekotorые zakonodatelnые aktы Respubliki Uzbekistan v svyazi s prinyatiem osnovnых napravleniy nalogovoy i budjetnoy politiki na 2017 god. Zakon RUz ot 27.12.2016 g. N ZRU-417.

18. O vnesenii izmeneniy i dopolneniy v nekotorые zakonodatelnые aktы Respubliki Uzbekistan v svyazi s prinyatiem dopolnitelnых mer po obespecheniyu uskorennogo razvitiya predprinimatelskoy deyatelnosti, vsemernoy zaщite chastnoy sobstvennosti i kachestvennomu uluchsheniyu delovogo klimata. Zakon Respubliki Uzbekistan ot 29.12.2016 g. N ZRU-418.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. http://lex.uz/docs/4567334

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 1 maydagi PQ-4700-son “Koronavirus pandemiyasi davrida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, mavjud resurslardan oqilona foydalanish, qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/docs/4803523

21. O merax po korennomu sovershenstvovaniyu nalogovogo administrirovaniya, povыsheniyu sobiraemosti nalogov i drugix obyazatelnых platejey ot 18 iyulya 2017 g.

22. O strategii deystviy po dalneyshemu razvitiyu Respubliki Uzbekistan ot 7 fevralya 2017 g.

23. O merax po rasshireniyu polnomochiy organov gosudarstvennoy vlasti na mestax v formirovanii mestnых budjetov ot 7.06.2017 g.

24. O sozdanii Fonda selevogo finansirovaniya gosudarstvennых zakupok selskoxozyaystvennoy produksii i osnaщeniya texnikoy selskogo xozyaystva pri Kabinete Ministrov Respubliki Uzbekistan ot 27.06. 2017 g.

25. O pervoocherednых merax po liberalizatsii valyutnoy politiki ot 2.09.2017.

26. Konsepsiya administrativnoy reformы v Respublike Uzbekistan. Prilojenie №1 k Ukazu Prezidenta Respubliki Uzbekistan ot 8.09.2017 g.

27. O vnesenii izmeneniy i dopolneniya, a takje priznanii utrativshimi silu nekotorых Ukazov Prezidenta Respubliki Uzbekistan v svyazi s prinyatiem osnovnых napravleniy nalogovoy i budjetnoy politiki na 2017 god. UP -4993 ot 18.03 2017g.

28. O merax po sovershenstvovaniyu sistemы upravleniya v sfere vneshney torgovli. UP-5012 ot 3.04.2017g.

29. O merax po kardinalnomu uluchsheniyu investitsionnogo klimata v RUz. UP 5495 ot 01.08.2018g.

30. O gosudarstvennoy programme realizatsii deystviy po pyati prioritetnым napravleniyam. UP-5308 ot 22.01.2018g.

31. O konsepsii sovershenstvovaniya nalogovoy politiki RUz. UP -5468 ot 29.06.2018g.

32. Nosova S.S. Makroekonomika v voprosax i otvetax: uchebnoe posobie. – M.: KNORUS, 2012. – 224 s.

33. Abakumova O.G. Makraekonomika: Konspekt leksiy. – M.: A – Prior, 2012. – 155 str.

34. Djumaev Z.A. "Makroiqtisodiyot" fanidan O'quv-uslubiy majmua.-Toshkent: Iqtisodiyot. 2012 y. – 598 b.

35. Vechkanov S.V., Vechkanova G.R. Makroekonomika. Kratkiy kurs.: uchebnoe posobie. SPb.: Piter, 2010. -288 s.

36. Marыganova Ye.A., Shapiro S.A. Makroekonomika. Ekspress kurs.: uchebnoe posobie. M.: KNORUS, 2010. -302 s.

37. Vechkanov G.S., Vechkanova G.R. Makroekonomika; Uchebnik dlya vuzov. SPb.: Piter, 2009. -350 s.

38. Menkyu N.G. Prinsipы makroekonomiki. SPb.: Piter, 2009. -544 s.

39. Samuelson, Pol E., Nordxaus, Vilyam D. Makroekonomika. M.: OOO «I.D. Vilyams», 2009. -592 s.

40. A.G.Gryaznevoy i N.N. Dumnoy. Makroekonomika. Teoriya i rossiyskaya praktika: uchebnik. M.: KNORUS, 2008. -688 s.

41. Abel E., Bernanke B. Makroekonomika. SPb.: Piter, 2008. -768 s.

42.Kiselyova Ye.A. Makroekonomika: Kurs leksiy. M: Izd-vo Eksmos, 2007. -352 s.

43.Tarsevich L.S., Grebnikov P.I., Lusskiy A.I. Makroekonomika: Uchebnik. M.: Vыsshee obrazovanie», 2006. -654 s.

44. Agapova T.A., Seregina S.F. Makroekonomika. Uchebnik. M.: «Delo i Servis», 2005. -464 s.

45.Chepel S.V. Institutsionalnыe makroekonomicheskie i drugie predposыlki aktivatsii faktorov innovatsionnogo razvitiya v Uzbekistane.

46.Trostyanskiy D.M., Islamova O.A. Formirovanie innovatsionnoy infrastrukturы v industrialnom komplekse Uzbekistana/ Vestnik UGNTU. Nauka, obrazovanie, Ekonomika. Seriya: Ekonomika №3 (9), 2014.